

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING
YANGI DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLAR
TARAQQIYOTINING XUSUSIYATLARI
VA ISTIQBOLLARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

TOSHKENT – 2021

sun'iy yo'ldosh aloqasi bilan foydalanuvchi va markaziy axborot ma'lumotlar banki o'rtasida yoki yuqoridagi aloqa turlaridan biriga ulangan kompyuter foydalanuvchilari o'rtasida turli xil ma'lumotlar almashish uchun mo'ljallangan. Bu telekommunikatsiyaning quyidagi didaktik vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi: telekonferentsiyalar, ma'ruzalar, seminarlar o'tkazish, unda turli mintaqalar va mamlakatlardan o'qituvchilar va talabalar ishtirok etishlari mumkin.

Agar biz har xil turdagi ta'lim faoliyatida axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining har xil vositalaridan foydalanishning yaxlitligini ta'minlasak, haqiqiy o'quv jarayonida ta'lim dasturiy mahsulotlarini ishlatishdan katta pedagogik samaraga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. - 174 b.
2. Salomov R.C., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar / O'quv qo'll. – T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2009.
3. Левина М. Технологии профессионального педагогического образования.-М., 2001

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FIZIKANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI KASBGA YONALTIRISH IMKONIYATLARI

**A. A. Berkinov, *Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti*
o'qituvchisi,**

J. S. Umirov, *Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi*

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar mutaxassislarining yangi avlodi egallashi zarur bo'lgan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarga yangi-yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Bu birinchidan, ilmiy bilimlarni ko'p talab qilingan texnologiyalarning keng tarqalishiga taalluqli bo'lsa, ikkinchidan, ishni tashkil qilishdagi o'zgarishlar va o'qitish jarayonining natijalariga tegishlidir.

Shu bois, ana shunday muammolarni bartaraf etish maqsadida keng ko'lamda amaliy ishlar qilinmoqda. Ularning zaminida o'quvchilarni olgan nazariy bilimlarini amaliy tadbiqiga erishish yotadi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda fizika o'qitish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, u nazariy bilim berish bilan birga aksariyat sohalarning negizini tashkil etadi.

O'quvchilarni nazariyadan olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishga o'rgatish fizika o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Bu vazifani o'quv tajribasi amalga oshiradi.

Fizikadan o'quv tajribasi-bu fizik hodisalarni darsda maxsus asboblardan yordamida, uni o'rganish uchun qulay sharoitda ko'rsatishdir. Shuning uchun ham u bir vaqtning o'zida bilimlar manbai, o'qitish metodi va ko'rgazmalilik turi bo'lib xizmat qiladi.

Fizika tajribasi ikkita asosiy ko'rinishga bo'linadi: namoyishli tajriba va laboratoriya tajribasi. Tajribaning bu ikki ko'rinishi bir-birini to'ldiradi.

Namoyishli tajribani o'qituvchi bajaradi va bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari tomonidan kuzatiladi.

To'g'ri tashkil qilingan o'quv tajribasi shaxsda qo'yilgan maqsadlarga intilishdagi sobitlikni, aniq ma'lumotlar olishda puxtalikni, ishdagi aniqlikni, qaralayotgan hodisalarning asosiy sifatlarini va boshqalarni kuzatish hamda ajratib olish malakasini tarbiyalashda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. [1:14].

Barcha biomehanik tajribalarda energetik o'zgarishlar kuch va bajarilgan ish hisobiga amalga oshiriladi. Ularni o'lchash uchun shifokorlar dinamometr va ergometrdan foydalanadilar.

Dinamometr grekcha so'zdan olingan bo'lib kuchni o'lchayman degan ma'noni bildiradi. Ular mehanik (prujinali va richagli), elektronli va gidravli turlariga bo'linadi. Dinamometrlarning yana bir turi-bu ergometrdir. Sport anjomi hisoblangan bu ergometr reabilitatsiya va sog'lomlashtirish markazlarida bo'ladi. U inson organizmining tayanch organlari sistemasini davolashda ishlatiladi. Inson organizmini ish bajara olish qobiliyatini o'lchash bilan birga, uning xarorati, yurak chastotasi va pulsi hamda nafas olishini datchik ko'rsatib turadi. Insonlar ergometrlardan foydalanish jarayonida ham o'zlari bilmagan holda fizik tajriba bajaradilar. [2:18]

Эргометр inson organizmini muskullarning fizik darajasini aniqlaydi. Ular barmoq va to'qimalar ergometrdir. Ommalashgan третбан (yugurish yo'lagi, u har hil tezlikda harakatlanadi, uning o'rindig'ini balandligini o'zgartirish mumkin uni veloergometr deb ham aytiladi.

Shu bilan birga tarihdan ham insonlar fizik tajriba natijasi orqali kashfiyotlar qilganlar. Biz quyida keltiradigan tajribalar tibbiyotda fizikaning ahamiyatini ochib beradi. Masalan: Energiyaning saqlanish qonunini birinchi bo'lib, nemis shifokori Robert Mayer (1814-1878) ta'riflaydi. 1840-yilda Mayer Hindiston orolida shifokor bo'lib ishlaganda, kema bo'rtida o'tirib fransuz olimi Loran Lavuazye asarlarini o'qib, unda Lavuazye quyidagilarni tahmin qilganligini o'rganib chiqqan. U hayvonlarda issiqlikni ajralishi ular organizmida ozuqa moddasining sekin o'zlashtirilishi hisobiga sodir bo'lishini

aytadi. Lavuazye yana shuni takidlaydiki, ozuqa moddalari issiq muhitda sovuq muhitga nisbatan kam parchalanadi.[3:7(12)]

Kema tropik o'lkalarga yetganida undagi guruh a'zolari bezgak kasaliga uchraydi. Bezgakga qarshi oddiy usullarni qo'llab, o'zining kasallaridan qon oladi, bunda u vena qoni to'q qizil bo'lishiga qaramasdan uning rangi arterial qonga o'xshab qizil tusni olgan, bunda Lavuazye o'z taxminlarini tasdiqlaydi. Tropiklardagi organizmlarda moddalar kam parchalanganligi sababli olingan qonda kislorod miqdori ko'paygan, kislorod olingan qonning rangini o'zgartiradi. Mayer keyin Lavuazye nazaryasidan chetga chiqib, quydagilarni ta'kitlaydi, organizmda aniq energiya balansi mavjud bo'lib, uni kuch deb ataydi. Ozuqa moddalaridan ajralgan energiya unda yo'qotiladigan issiqlikka va organizm tomonidan bajariladigan ishga sa'rflanadi. Mayer 1842-yilda yozgan maqolasida, Nisbiylik nazaryasida ham saqlanish qonuni energiyaga bog'liq ravishda o'zgarishini ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan tajribalarning aksariyati o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining fizika darsligida o'z aksini topgan bo'lib, u o'quvchilarni fikrlashga, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishga undaydi. Fizikaning amaliy ahamiyatini oshirish kelejakda yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Mirzaxmedov va boshq. Fizika o'qitish nazariyasi va metodikasi. 1-2-qism. T.: 2010 y.
2. Paul Davidovits Physics in Biology and Medicinc Fourth Eiton 2013. 10-18bet.
3. Berkinov, A. (2019). Technologies For The Development Of Educational And Creative Activities Of Students In The Process Of Solving Problems In Molecular Physics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
4. www.ziyonet.uz
Maqola 3-sho'bag'a tayyorlangan 975244037

Кейсовые технология в преподавании литературы.....	89
<i>Расулова М.Х., доцент кафедры русского языка и литературы КГПИ</i>	<i>89</i>
RAQAMLI IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHDAGI ANAMIYATI	92
<i>Qodirov Barhayotjon Sobirjonovich, Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi</i>	<i>92</i>
PEDAGOGIK KVALIMETRIYA METODLARI VA ULARNING TURLARI, ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI.	95
<i>V.Xamdanova, QDPI, texnologik ta‘im kafedrasida katta o‘qituvchisi, B.Umrzoqov, QDPI, , texnologik ta‘im kafedrasida o‘qituvchisi.....</i>	<i>95</i>
JISMONIY TARBIYA TA'LIMI TIZIMIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING INNOVATSION ISTIQBOLLARI.....	98
<i>Talipdjanov Alijon Akramovich, Qo‘qon davlat pedagogika instituti p.f.n. dotsent.....</i>	<i>98</i>
UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FIZIKANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI KASBGA YONALTIRISH IMKONIYATLARI	101
<i>Alisher Abdurashidovich Berkinov, Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, Javlonbek Sobirjon o‘g‘li Umirov, Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi</i>	<i>101</i>
AKLI ZAIF BOLALAR RUXIYATINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	104
<i>M.Xoldorov, QDPI defektologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi, t.f.n.</i>	<i>104</i>
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA IJTIMOVIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	108
<i>I.A.Oxunov, ADU erkin tadqiqotchi.....</i>	<i>108</i>
MASAJALAR ECHIŞ METODLARI ORQALI GAZ QONURLARINI ŐKITIŞ.	112
<i>Эргашев Жамшид Қўлдошев, ЖДПИ ўқитувчиси, Қўчқоров Абулқосим Чорёр ўғли, ЖДПИ талабаси</i>	<i>112</i>
KEYS METODINING XUSUSIYATLARI.....	114
<i>Xolmatova Ziroat Anvarovna, Qo‘qon DPI Pedagogika kafedrasida mudiri, PhD, dotsent., M.Usmonova, Qo‘qon DPI magistranti</i>	<i>114</i>
MEDIA TA'LIMI TA'LIM SOHASIDAGI ALOHIDA YO'NALISH SIFATIDA	117
<i>A.Isakova, Qo‘qon DPI o‘qituvchisi.....</i>	<i>117</i>
PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILAR TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI	119
<i>A.M.Matkarimov, ADU erkin tadqiqotchi.....</i>	<i>119</i>
VITAGENIC EDUCATION AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMPETENCE	123